Annotation. *Humanity has used plants as a source of food and medicine since ancient times. Today, medicinal plants are used as the main source in the treatment and prevention of various diseases, in the production of medicines, biologically active supplements and cosmetics. In order to introduce a medicinal plant product into medical practice, it is necessary to study its chemical composition and pharmacological activity. This article presents the information collected from the literature on the chemical compounds and their groups contained in the Prunella L. plant. 15 types of Prunella L. are known in the world, and all types are considered pharmacologically important. The given information refers to the species Prunella vulgaris L.*

Kalit so'zlar: *morfologiya, Prunella L., fenol birikmalar, kumarinlar, uglevodlar, terpenoidlar.*

Ключевые слова: *морфология, Prunella L., фенольные соединения, кумарины, углеводы, терпеноиды.*


Key words: *morphology, Prunella L., phenol compounds, coumarins, carbohydrates, terpenoids.*

Prunella L. o'simligi Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, poyasi 10-40 sm gacha yetadi. Barglari uzunchoq, tuxumsimon, chetlari tekis, tuksiz to'q yashil rangda. Gullari binafsha rangli, kalta bandli, zich boshoqsimon to'pgulga to'plangan. Gullari bir vaqtning o'zida ochilmaydi, yuqoridan pastga qarab asta-sekin gullaydi. Hashoratlar yordamida changlanadi. Tog'oldi hududlarda nam yerlarda o'sadi.

Iyul-avgust oylarida gullaydi. Avgust-sentabr oylarida urug'i yetiladi. Hozirgi vaqtga kelib bir qator olimlar tomonidan Prunella L. o'simligi tarkibidagi biologik faol moddalar guruhlari aniqlangan.


Fenol birikmalar

Prunella L. o'simligining yer ustki qismidan olingan etanolli ekstraktini yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida tahlil qilinganda asosiy fenol birikmalar kofe kislota (1) va rozmarin kislota (2) ekanligi aniqlandi. O'simlik tarkibida kofe kislotaning sis-kofein va trans-kofein, rozmarin kislotaning metil rozmarin (3) va etil rozmarin (4) kabi izomerlari uchraydi. Shu bilan birga, Prunella L. o'simligi tarkibida p-kumarin kislota (5) aniqlangan [1,2].




(1)

Kofe kislota




(2)

Rozmarin kislota




(3)

Metil rozmarin



(4)

Etil rozmarin




(5)

P-kumarin kislota


Flavonoidlar

Zhang va b. tomonidan Fransiya xududida o‘sadigan Prunella L. o‘simligining metanolli ekstraktidan kversetin-3-O-glyukozid (6) va kempferol-3-O–glyukozid (7) ajratib olingan va kimyoviy tuzulishi spektral tahlil orqali aniqlangan (Zhang and Yang, 1995) [3]. Shuningdek, zamonaviy xromatografik usullardan foydalanib uning tarkibidagi flavonoidlar yig’indisidan kversetin (8) rutin (9) va kversetin-3-O-β-D-galaktozid ajratib olingan (Van et al., 1999) [4]. 2008 yilda olib borilgan tadqiqotlar flavonoidlarni ajratib olish uchun eng samarali usul ultratovush orqali ekstraksiya ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu usulda 41% etanolda maksimal 3,62% miqdorda flavonoidlar ajratib olingan (Van et al., 2008) [5]. Zhang va boshqalar tomonidan quritilgan Prunella L. o‘simligidan akasetin-7-O-β-D-glyukopiranozidi (10) identifikatsiya qilingan (Zhang et al., 2008)[6]. Kolonkali xromatografiya usulida tabiiy birikmalar laboratoriyasi (Sungkyunkwan universiteti, Koreya)da 24 ta birikma ajratib olingan bo‘lib, ulardan 4 tasi flavonoidlarga mansub quyidagi birikmalardir: kversertin-3-O-β-D-glyukopiranozid (11), kempferol-3-O-α-L-ramnopiranozil(1→6)-β-D-glyukopiranozid (12), kempferol-3-O-β-D-glyukopiranozid (13) (Lee et al., 2008) [7].




(6)

Kversetin-3-O-glyukozid




(7)

Kempferol-3-O–glyukozid




(8)

Kversetin




(9)

Rutin




(10)

Akasetin-7-O-β-D-glyukopiranozid




(11)

Kversertin-3-O-β-D-glyukopiranozid



(12)

Kempferol-3-O-α-L-ramnopiranozil(1→6)-β-D-glyukopiranozid




(13)

Kempferol-3-O-β-D-glyukopiranozid

Triterpenlar


Prunella L. o‘simligidan umumiy hisobda 87 ta triterpen guruhiga kiruvchi birikmalar ajratib olingan. Feng va boshqalar (2011) etanolli ekstraktdan oleanol kislotani ajratib olib yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, yuqori samarali yupqa qatlam xromatografiyasi hamda mass-spektrli suyuqlik xromatografiya usullaridan foydalanib identifikatsiya qilishgan. Yaponiyalik olimlar Kojima va Oguralar Prunella L. o‘simligining yer ustki qismidan yangi triterpen, 2α,3α,24-trigidroksi-12-en-28-olean kislotasini (14) ajratib oldilar va YaMR tahlil usulida identifikatsiya qildilar [8]. Dongsheng Du va bir qancha olimlar ushbu o‘simlikdan yangi birikma d-11-triterpen va o‘n uchta ma’lum bo‘lgan triterpenlarni ajratib oldilar [9]. Byun va boshqalar tomonidan Prunella L. o‘simligining gullaridan α-amirin triterpenoidlari (ursol kislota (15), euskafin kislota (16)) va β-

amirin triterpenoidlari (3-β-gidroksi-5,12-dien-28-olean kislota (17) va α-spinasterol) kabi birikmalarni tahlil qilingan [10].




(14)

2α,3α,24-trigidroksi-12-en-28-olean kislota




(15)

Ursol kislota



(16)

Euskafin kislota



(17)


3-β-gidroksi-5,12-dien-28-olean kislota

Uglevodlar

Ge Meng, Mei Wang va boshqa olimlar tomonidan Prunella L. o‘simligi tarkibida erkin monosaxaridlar (ramnoza, glyukoza, ksiloza, arabinoza, mannoza, galaktoza va boshqalar), disaxaridlar (saxaroza va fruktoza) va polisaxaridlar borligi aniqlangan [11]. Iordaniyalik olim Tabba va b. tomonidan Prunella L. o’simligining suvli ekstraktidan tarkibida oltingugurt bo‘lgan polisaxarid (Prunellin) ham ajratib olingan [12].


Kumarinlar

Tadqiqotchilar tomonidan Prunella L. tarkibida oz miqdorda kumarin borligi aniqlangan. 1984 yil avgust oyida Tomsk atrofida yig‘ilgan Prunella vulgaris L. va Prunella grandiflora L. tarkibida qog‘oz va yupqa qatlamli xromatografiya yordamida oltita benzo-α-piron hosilalari aniqlangan va undan uchta kumarin birikmasi ajratilgan. Infraqizil spektroskopiya tahlili yordamida umbelliferon (18), skopoletin (19) va eskuletin (20) aniqlangan [13].




(18)

Umbelliferon



(19)

Skopoletin




(20)

Eskuletin


Steroid birikmalar

Prunella L. o‘simligida mavjud bo‘lgan asosiy sterollarga β-sitosterol (21), stigmasterol (22) va α-spinolol kiradi. O‘simlikining bargi, poyasi va boshqa qismlaridan 8 ta steroid birikmalar ajratilgan [13] bo’lib, ularning 4 tasi (dukosterol, α-spinasterol (23), β-sitosterol, stigmasterol-7-olefin spirti) erkin holda, qolgan 4 ta (stigmast-7-enil-β-D-glyukopiranozid, (22E,20S,24S)-stigmast-7,22-dien-3-en, α-spinasterolil-β-D-glyukopiranozid, va stigmasterolil-β-D- glyukopiranoza) birikma esa glikozidlar holida uchraydi [15].




(21)

β-sitosterol



(22)

Stigmasterol




(23)

α-spinasterol


Vitaminlar

Prunella L. o‘simligi tarkibida vitamin A (24), C (25), K (26), B_1 (27), P (28) lar mavjud [16].




(24)

Vitamin A




(25)

Vitamin C




(26)

Vitamin K



(27)

Vitamin B1




(28)

Vitamin P


Terpenoidlar

Prunella L. tarkibidagi efir moylariga asosan terpenlar (monoterpenlar, seskviterpenlar va ularning kislorodli hosilalari), kichik molekula alifatik birikmalar va aromatik birikmalar kiradi. Yang va boshqlar tomonidan zamonaviy xromatografik usullar yordamida Prunella L. o‘simligi tarkibidagi efir moyi komponent tarkibini tahlil qilindi va asosiy komponentlar 1,8-sineol (29) (44,827%), β-pinen (30) (15,736%), linalolasetat (31) (4,187%), α-fellandren (32) (5,578%), ekanligini aniqlandi [17]. Eronlik olim Morteza-Semnani va boshqalar tomonidan quritilgan o‘simlik yer ustki qismining gulli boshoqlaridan ham efir moyi ajratib olingan bo‘lib, uning tarkibida 32 komponent aniqlangan. Ularga selin-11-en-4α-ol (33) (14,9%), sis-eudesma-6,11-diene (34) (9.4%), 1,10-di-epi-kubenol (8,0%), spatulenol (35) (5,8%) va germakren D (36) (5,1%) kiradi [18].




(29)

1,8-sineol




(30)

β-pinen




(31)

Linalilasetat




(32)

α-fellandren




(33)

Selin-11-en-4α-ol




(34)

Sis-eudesma-6,11-dien



(35)

Spatulenol



(36)

Germakren D

Aminokislotalar

Shimoliy Kavkaz (Karachev Cherkez Respublikasi, GumBashi davoni) hududida gullash davrida yig‘ilgan Prunella L. tarkibida 16 turdagi aminokislotalar topilgan bo‘lib, ulardan 9 tasi almashinmaydigan hisoblanadi (lizin, valin, metionin, treonin, izoleysin, fenilalanin, arginin, gistidin,

leysin). Aminokislotalarning umumiy miqdori 5,56% tashkil etgan. Aminokislotalar ichida glyutamin kislota (14,39%), asparagin kislota (13,31%), leysin (8,99%) va prolin ustunlik qiladi (7,01%)[19].

Oshlovchi moddalar va oqsillar

Prunella L. tarkibida 52,25 mg % taninlar va 441,6 mg % oqsillar borligi aniqlangan [20].


Xulosa. Adabiyotlarni tahlil qilish davomida turli mamlakat olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida ma'lumotlar umumlashtirilib, Prunella vulgaris L. o'smligining kimyoviy tarkibi bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarildi: Prunella L. o'simligi tarkibida flavonoidlar, fenol birikmalar, polisaxaridlar, oshlovchi moddalar, oqsillar, sterollar, aminokislotalar, shuningdek terpenoidlar va kumarinlar guruhiga mansub kimyoviy birikmalar mavjud. Ushbu olingan ma'lumotlar kelgusida Prunella L. o'simligi ustida olib boriladigan tadqiqotlar uchun qo'shimcha manba sifatida foydalaniladi.

Prunella L. многолетнее растение семейства Яснотковые. Стебель достигает 10-40 см. Листья длинные, яйцевидные, с прямыми краями, темно-зеленые, без волосков. Цветки фиолетовые, короткополосчатые, собраны в плотное колосовидное соцветие. Цветки раскрываются не одновременно, распускаются постепенно сверху вниз. Опыляется насекомыми. Произрастает на влажных землях в горных районах.

Цветет в июле-августе. Семена созревают в августе-сентябре.Некоторые ученые выделили в растении Prunella L. группы биологически активных веществ..


Фенольные соединения

Проведенный анализ спиртового экстракта надземной части Prunella L. методом высокоэффективной жидкостной хроматографии показал, что основными фенольными соединениями являются кофейная (1) и розмариновая кислоты (2). В растении обнаружены изомеры кофейной кислоты, такие как цис-кофеин и транс-кофеин, метилрозмарин (3) и этилрозмарин (4) розмариновой кислоты. Также, в растении Prunella L. была обнаружена п-кумаровая кислота (5) [1,2].




(1)

Кофейная кислота




(2)

Розмариновая кислота




(3)

Метилрозмарин



(4)

Этилрозмарин





(5)

П-кумаровая кислота

Флавоноиды


Из метанольного экстракта Prunella L., произрастающего во Франции были выделены кверцетин-3-O-глюкозид (6) и кемпферол-3-O-глюкозид (7) и определена их химическая структура методом спектрального анализа (Zhang and Yang, 1995).) [3]. Также из суммы флавоноидов с помощью современных хроматографических методов были выделены кверцетин (8), рутин (9) и кверцетин-3-O-b-D-галактозид (Van et al., 1999) [4]. Исследования, проведенные в 2008 году, показывают, что наиболее эффективным методом извлечения флавоноидов является ультразвуковая экстракция. При помощи этого метода в 41% этаноле было выделено наибольшее количество флавоноидов - 3,62% (Van et al., 2008) [5]. Акацетин-7-O-β-D-глюкопиранозид (10) был идентифицирован из высушенной травы Prunella L. (Zhang et al., 2008) [6]. Методом колоночной хроматографии в лаборатории природных соединений (Университет Сонгюнкван, Корея) выделено 24 соединений, 4 из которых являются флавоноидными соединениями: кверцертин-3-O-β-D-глюкопиранозид (11), кемпферол-3-O-α-L-рамнопиранозил(1→6)-β-D-глюкопиранозид (12), кемпферол-3-O-β-D-глюкопиранозид (13) (Lee et al., 2008) [7].






(6)

Кверцетин-3-о-глюкозид




(7)

Кемпферол-3-о-глюкозид




(8)

Кверцетин



(9)

Рутин




(10)

Акацетин-7-о-β-d-глюкопиранозид


(11)

Кверцертин-3-о-β-d-глюкопиранозид



(12)

Кемпферол-3-о-α- l-рамнопиранозил(1→6)-β-d-глюкопиранозид




(13)

Кемпферол-3-о-β-d-глюкопиранозид

Тритерпены


Всего из растения Prunella L. выделено 87 тритерпеновых соединений. Feng и др. (2011) выделили олеаноловую кислоту из спиртового экстракта и идентифицировали ее с помощью высокоэффективной жидкостной хроматографии, высокоэффективной тонкослойной хроматографии и жидкостной хроматографии-масс-спектрометрии. Ученые из Японии Kojima и Ogure выделили из надземной части растения Prunella L. новый тритерпен - 2α,3α,24-

тригидрокси-12-ен-28-олеиновую кислоту (14) и идентифицировали его методом ЯМР [8] . Dongsheng Du и др. ученых выделили из растения Prunella L. новое соединение α -11-тритерпен и тринадцать известных тритерпенов [9]. Были проведены исследования по изучению тритерпеноидов α-амирина (урсоловая кислота (15), эускафиновая кислота (16)) и тритерпеноидов β-амирина (3-β-гидрокси-5,12-диен-28-олеиновая кислота (17) и α-спинастерин). [10].




(14)

2α,3α,24-тригидрокси-12-ен-28-олеиновую кислоту




(15)

Урсоловая кислота



(16)

Эускафиновая кислота



(17)


3-β-гидрокси-5,12-диен-28-олеиновая кислота

Углеводы

Ge Meng, Mei Wang и другие установили, что Prunella L. содержит свободные моносахариды (рамноза, глюкоза, ксилоза, арабиноза, манноза, галактоза и др.), дисахариды (сахароза и фруктоза) и полисахариды [11]. Иорданскими учеными Tabba и др. из водного экстракта Prunella L. также был получен серосодержащий полисахарид (прунеллин) [12].


Кумарины

Ученые обнаружили, что Prunella L. содержит небольшое количество кумарина. В траве Prunella vulgaris L. и Prunella grandiflora L., собранного под Томском в августе 1984 г с помощью бумажной и тонкослойной хроматографии идентифицированы шесть производных бензо-α-пирона и из них выделены три соединения кумарина. С помощью инфракрасной спектроскопии были идентифицированы умбеллиферон (18), скополетин (19) и эскулетин (20) [13].




(18)

Умбеллиферон



(19)

Скополетин




(20)

Эскулетин


Стероидные соединения

К основным стеролам, присутствующим в Prunella L. относятся β-ситостерин (21), стигмастерин (22) и α-спинолол. Из листьев, стеблей и других частей растения было выделено восемь стероидных соединений [13], из них 4 (дукостерин, α-спинастерин (23), β-ситостерин, стигмастерин-7-олефиновый спирт) находятся в свободном состоянии, остальные 4 (стигмаст-7-енил-β-D-глюкопиранозид, (22E,20S,24S)-стигмаст-7,22-диен-3-еновые, α-спинастеролил-β-D-глюкопиранозидные и стигмастеролил-β-D-глюкопиранозные) соединения встречаются в виде гликозидов [15].




(21)

β-ситостерин



(22)

Стигмастерин




(23)

α-спинастерин


Витамины

Prunella L. содержит витамин A (24), C (25), K (26), B_1 (27), P (28) [16].




(24)

Витамин А




(25)

Витамин С




(26)

Витамин К



(27)

Витамин В1




(28)

Витамин Р


Терпеноиды

Эфирные масла Prunella L. в основном включают терпены (монотерпены, сесквитерпены и их кислородсодержащие производные), низкомолекулярные алифатические соединения и ароматические соединения. Yang и др. провели исследования ио изучению компонентного состава эфирного масла Prunella L. с использованием современных хроматографических методов и установили, что основными компонентами являются 1,8-цинеол (29) (44,827%), β-пинен (30) (15,736%). , линалолацетат (31) (4,187%), α-фелландрен (32) (5,578%) [17]. Иранский ученый Mortenza-Semnani и другие получили эфирное масло из цветочных колосьев высушенной верхней части растения и в его составе идентифицировали 32 компонента. К ним относятся селин-11-ен-4а-ол (33) (14,9%), цис-эудесма-6,11-диен (34) (9,4%), 1,10-ди-эпикубенол (8,0 %), спатуленол (35) (5,8%) и гермакрен Д (36) (5,1%) [18].




(29)

1,8-цинеол




(30)

β-пинен




(31)

Линалолацетат




(32)

α-фелландрен




(33)

Селин-11-ен-4а-ол




(34)

Цис-эудесма-6,11-диен



(35)

Спатуленол



(36)

Гермакрен Д

Аминокислоты

В Prunella L., собранной во время цветения на Северном Кавказе (Карачевская республика, долина Гумбаши), обнаружено 16 аминокислот, из них 9 являются незаменимыми (лизин, валин, метионин, треонин, изолейцин, фенилаланин, аргинин). Общее содержание аминокислот составило 5,56%. Из них преобладают глутаминовая кислота (14,39%), аспарагиновая кислота (13,31%), лейцин (8,99%) и пролин (7,01%) [19].

Дубильные вещества и белки

Установлено, что Prunella L. содержит 52,25 мг % дубильных веществ и 441,6 мг % белка [20].


Заключение. В ходе анализа литературы была обощены данные полученные на основе исследований, проведенных учеными разных стран и сделаны следующие выводы по химическому составу Prunella vulgaris L.: растение Prunella L. содержит флавоноиды, фенольные соединения, полисахариды, дубильные вещества, белки, стеролы, аминокислоты, а также химических соединений, относящихся к группе терпеноидов и кумаринов. Полученные данные будут использованы в качестве дополнительного источника для дальнейших исследований растения Prunella L.

Prunella L. is a perennial plant belonging to the Lamiaceae family. The stem reaches 10-40 cm. The leaves are long, ovate, with straight edges, dark green without hairs. The flowers are purple, short-banded, gathered in a dense spike-like inflorescence. The flowers do not open at the same time, they bloom gradually from top to bottom. It is pollinated by insects. It grows in moist lands in mountainous regions.

It blooms in July-August. The seeds ripen in August-September. Several scientists have identified groups of biologically active substances in the Prunella L. plant.


Phenolic compounds

Analyzing the ethanolic extract of Prunella L. from the above-ground part using the method of high-performance liquid chromatography, it was found that the main phenolic compounds are caffeic acid (1) and rosmarinic acid (2). Caffeic acid isomers such as cis-caffeic and trans-caffeic , methyl rosmarin (3) and ethyl rosmarine (4) of rosmarinic acid are found in the plant. At the same time, p-coumaric acid (5) was detected in the Prunella L. plant [1,2].




(1)

Caffeic acid




(2)

Rosmarinic acid




(3)



(4)

Methyl rosmarin *Ethyl rosmarine*




(5)

P-coumaric acid


Flavonoids

Zhang et al. quercetin-3-O-glucoside (6) and kaempferol-3-O-glucoside (7) were isolated from the methanolic extract of Prunella L. growing in France, and their chemical structure was determined by spectral analysis (Zhang and Yang, 1995) [3]. Also, using modern chromatographic methods, quercetin (8), rutin (9) and quercetin-3-O-β-D-galactoside were isolated from its flavonoids (Van et al., 1999) [4]. Research conducted in 2008 shows that the most effective method for extracting flavonoids is ultrasonic extraction. In this method, a maximum of 3.62% flavonoids were isolated in 41% ethanol (Van et al., 2008) [5]. Acacetin-7-O-β-D-glucopyranosid (10) was identified from dried Prunella L. by Zhang et al. (Zhang et al., 2008) [6]. 24 compounds were isolated by column chromatography at the Laboratory of Natural Compounds (Sungkyunkwan University, Korea), 4 of which are flavonoid compounds: quercertin-3-O-β-D-glucopyranoside (11), kaempferol-3-O -α-L-rhamnopyranosyl(1→6)-β-D-glucopyranoside (12), kaempferol-3-O-β-D-glucopyranoside (13) (Lee et al., 2008) [7].




(6)

Quercetin-3-o-glucoside




(7)

Kaempferol-3-O-glucoside




(8)



(9)


Quercetin



(10)


Acacetin-7-o-β-d-glucopyranosid

Rutin




(11)

Quercertin-3-O-β-D-glucopyranoside



(12)

Kaempferol-3-o -α-l-rhamnopyranosyl(1→6)-β-d-glucopyranoside




(13)


Kaempferol-3-O-β-D-glucopyranoside

Triterpenoids

A total of 87 triterpene compounds were isolated from Prunella L. plant. Feng et al. (2011) isolated oleanolic acid from the ethanolic extract and identified it using high performance liquid chromatography, high performance thin layer chromatography and liquid chromatography mass spectrometry. Japanese scientists Kojima and Ogura isolated a new triterpene, 2α,3α,24-trihydroxy-12-ene-28-oleic acid (14) from the above-ground part of Prunella L. plant and identified it by NMR analysis method [8]. Dongsheng Du and several scientists isolated a new compound d-11-triterpene and thirteen known triterpenes from Prunella plant [9]. From α-amyrin triterpenoids (ursolic acid (15), euskafinic acid (16)) and β-amyrin triterpenoids (3-β-hydroxy-5,12-dien-28-oleic acid (17), α-spinasterol) and such compounds were analyzed [10].




(14)




(15)

2α,3α,24-trihydroxy-12-ene-28-oleic acid *Ursolic acid*



(16)



(17)


Euskafinic acid *3-β-hydroxy-5,12-dien-28-oleic acid*

Carbohydrates

Ge Meng, Mei Wang and other scientists found that Prunella L. contains free monosaccharides (rhamnose, glucose, xylose, arabinose, mannose, galactose, etc.), disaccharides (sucrose and fructose) and polysaccharides [11]. Jordanian scientist Tabba et al. A sulfur-containing polysaccharide (Prunellin) was also obtained from the aqueous extract of Prunella L. [12].


Coumarins

Researchers have found that Prunella L. contains a small amount of coumarin. In Prunella vulgaris L. and Prunella grandiflora L., collected around Tomsk in August 1984 six benzo-α-pyrone derivatives were identified by paper and thin-layer chromatography, and three coumarin compounds were isolated from it. Using infrared spectroscopy analysis, umbelliferone (18), scopoletin (19) and esculetin (20) were identified [13].




(18)

Umbelliferone



(19)

Scopoletin




(20)

Esculetin


Steroid compounds

The main sterols present in Prunella L. include: β-sitosterol (21), stigmasterol (22), and α-spinolol. 8 steroid compounds were isolated from the leaves, stems and other parts of the plant [13]. 4 of them (ducosterol, α-spinasterol (23), β-sitosterol, stigmasterol-7-olefinic alcohol) are free and the remaining 4 (stigmast-7-enyl-β-D-glucopyranoside, (22E,20S,24S)-stigmast-7,22-diene-3-ene, α-spinasterolyl-β-D-glucopyranoside, and stigmasterolyl-β-D-glucopyranose) compound occurs in the form of glycosides [15].




(21)

B-sitosterol



(22)

Stigmasterol




(23)

A-spinasterol


Vitamins

Prunella L. plant contains vitamin A (24), vitamin C (25), vitamin K (26), vitamin B1 (27), vitamin P (28) [16].




(24)

Vitamin A




(25)

Vitamin C




(26)

Vitamin K



(27)

Vitamin B_1




(28)

Vitamin P


Terpenoids

Essential oils in Prunella L. mainly include terpenes (monoterpenes, sesquiterpenes and their oxygenated derivatives), small molecule aliphatic compounds and aromatic compounds. Yang et al. analyzed the component composition of the essential oil of Prunella L. using modern chromatographic methods and found that the main components were 1,8-cineol (29) (44.827%), β-pinene (30) (15.736%), linalolacetate (31) (4.187%), α-phellandrene (32) (5.578%), was found to be [17]. The Iranian scientist Morteza-Semnani and others extracted essential oil from the flower spikes of the dried upper part of the plant, and 32 components were identified in its composition. They include seline-11-en-4α-ol (33) (14.9%), cis-eudesma-6,11-diene (34) (9.4%), 1,10-di-epi-cubenol (8.0 %), spathulenol (35) (5.8%) and germacrene D (36) (5.1%) [18].




(29)

1,8-cineol




(30)

B-pinene




(31)




(32)

Linalolacetate




(33)

α-phellandrene




(34)

Seline-11-en-4α-ol



(35)

Cis-eudesma-6,11-diene



(36)

Spathulenol *Germacrene D*

Organic acids

16 types of amino acids were found in Prunella L., collected during flowering in the North Caucasus (Karachev Republic of Cherkessk, Gumbashi Valley), 9 of which are non-essential (lysine, valine, methionine, threonine, isoleucine, phenylalanine, arginine, histidine, leucine). The total amount of amino acids was 5.56%. Amino acids are dominated by 14.39% glutamic acid, 13.31% aspartic acid, 8.99% leucine and 7.01% proline [19].

Tanins and proteins

Prunella L. was found to contain 52.25 mg % tannins and 441.6 mg % proteins [20].

Conclusion. During the analysis of the literature, the data were summarized on the basis of research conducted by scientists from different countries, and the following conclusions were drawn regarding the chemical composition of the Prunella vulgaris L. plant: Prunella L. contains flavonoids, phenolic compounds, polysaccharides, additives , there are proteins, sterols, amino acids, as well as chemical compounds belonging to the group of terpenoids and coumarins. These obtained data will be used as an additional source for further research on Prunella L. .

References

1. Antioxidant Activities of Total Phenols of Prunella vulgaris L. in Vitro and in Tumor-bearing Mice Liang Feng 1 , Xiaobin Jia , Mao-Mao Zhu , Yan Chen and Feng Shi. 2010.
2. Prunella vulgaris: A Comprehensive Review of Chemical Constituents, Pharmacological Effects and Clinical Applications. Current Pharmaceutical Design, *2019*, 25, *359-369.*
3. Zhang Ymg-Jun Yang Chong-Ren. Two new ursane glycosides from Prunella vulgaris in France[J]. Plant Diversity, 1995, 17(04): 1-3.
4. Wang, Z. J., Zhao, Y. Y., Tu, G. Z., Hong, S. L., and Chen, Y. Y. (1999). Studies on the Chemical Constituents from Prunella Vulgaris. Acta Pharm. Sin. 34 (9), 679–681. doi:10.16438/j.0513-4870.1999.09.010.
5. Wang, Z. J., Tang, L. Y., Fu, M. H., He, Y., and Fang, J. (2008). Studies on Flavonoids in Prunella Vulgaris. Lishizhen Med. Materia Medica Res. 19 (8), 1966-1967.
6. Zhang, L. Z., Guo, Y. J., Tu, G. Z., Shi, R. B., Qin, W., Ba, Y. Y., et al. (2008). A Novel Triterpenoid Saponin from Prunella Vulgaris. Yao Xue Xue Bao 43 (2), 169–172. doi:10.1016/s1006-7191(08)60035-6.

7. Lee, I. K., Kim, D. H., Lee, S. Y., Kim, K. R., Choi, S. U., Hong, J. K., et al. (2008). Triterpenoic Acids of Prunella Vulgaris Var. Lilacina and Their Cytotoxic Activities In Vitro. Arch. Pharm. Res. 31 (12), 1578–1583. doi:10.1007/s12272-001-2154-6.
8. Feng, L., Au-Yeung, W., Xu, Y. H., Wang, S. S., Zhu, Q., and Xiang, P. (2011a). Oleanolic Acid from Prunella Vulgaris L. Induces SPC-A-1 Cell Line Apoptosis via Regulation of Bax, Bad and Bcl-2 Expression. Asian Pac J. Cancer Prev. 12 (2), 403–408.
9. Du, D., Cheng, Z., and Chen, D. (2012). A New Unusual Delta11(12)-Oleane Triterpene and Anti-complementary Triterpenes from Prunella Vulgaris Spikes. Nat. Prod. Commun. 7 (4), 501–505. doi:10.1177/1934578X1200700422.
10. Byun, S. J., Fang, Z., Jeong, S. Y., Lee, C. S., Son, J. K., and Woo, M. H. (2007). [${\alpha} $]-Amyrin Triterpenoids and Two Known Compounds with DNA Topoisomerase I Inhibitory Activity and Cytotoxicity from the Spikes of Prunella Vulgaris Var. Lilacina. Nat. Product. Sci. 13 (4), 359–364.
11. Research Progress on the Chemistry and Pharmacology of Prunella vulgaris Species Ge Meng, Mei Wang, Kejie Zhang, Zengjun Guo, Juan Shi1/ 2014 Open Access Library Journal, 2014, 1, 1-19.
12. Tabba, H. D., Chang, R. S., and Smith, K. M. (1989). Isolation, Puri*f*ication, and Partial Characterization of Prunellin, an Anti-HIV Component from Aqueous Extracts of Prunella Vulgaris. ***Antivir. Res.*** 11 (5-6), 263–273. doi:10.1016/0166-3542(89)90036-3.
13. Дмитрук С.И. Кумарины Prunella vulgaris/ С.И. Дмитрук // Химия природ. соединений. — 1986. - № 4. — С. 510-511.
14. Kojima H, Sato N, Hatano A. Sterol glucosides from *Prunella vulgaris*. Phytochemistry 1990; 29: 2351-5(sterol).
15. Prunella vulgaris: A Comprehensive Review of Chemical Constituents, Pharmacological Effects and Clinical Applications.
16. Ethno-botanical Potential of Prunella vulgaris and Human Health May 2019.
17. Yang, L. J., Li, Z. Q., and Fan, P. (1988). GC/FT-IR Analysis of Essential Oil Composition of Prunella Vulgaris L. Chin. J. Pharm. Analysis 8 (5), 264–266.
18. Morteza-Semnani, K., Saeedi, M., and Akbarzadeh, M. (2006). The Essential Oil Composition ofPrunella vulgarisL. J. Essent. Oil Bear. Plants 9 (3), 257–260. doi:10.1080/0972060X.2006.10643500.
19. Шамилов А.А. Анализ полисахаридного, аминокислотного и элементного состава травы черноголовки обыкновенной (*Prunella vulgaris* L.), произрастающей на северном Кавказе // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Химия. Биология. Фармация. – 2018. – №3. – С. 271-277.
20. Rasool, R., Ganai, B.A., Akbar, S., Kamili, A.N. and Masood, A. (2010) Phytochemical Screening of *Prunella vulgaris* L.—An Important Medicinal Plant of Kashmir. *Pakistan Journal of Pharmaceutical Sciences*, ***23***, 399-402.

Author Biographies

Nodira T. Farmanova*, Tashkent Pharmaceutical Institute*

Head of the Department of Pharmacognosy, Doctor of Chemical Sciences, Professor

Dilobar Kh. Nurullaeva*, Tashkent Pharmaceutical Institute*

Senior teacher of the Department of Pharmacognosy, Doctor of Philosophy in Pharmaceutical Sciences (PhD)

Murodilla U. Khalilullayev*, Tashkent Pharmaceutical Institute*

5th year student of the Vocational Education of the Faculty of Pharmacy

Arziqul J. Nurullaev, *Military Medical Academy of the Armed Forces of Uzbekistan senior teacher, colonel*

Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 2, Issue 6, 2023 Traditional Medicine

UDK 547.962.9:547.917:615.4

BOSHPIYOZ O‘SIMLIGI CHIQINDILARI KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ОТХОДОВ РАСТЕНИЙ ЛУКА И ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

CHEMICAL COMPOSITION OF ONION PLANT WASTE AND IMPORTANCE IN FOLK MEDICINE

Manzura Aminovna Marupova, *Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi mudiri, dotsent*
Mavlonjon Maxmudjon o‘g‘li Axadjonov, *Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi*
Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov, *Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi*

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss6.2023.241

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida o’sadigan Allium cepa (boshpiyoz) o’simligining botanik va biologik xususiyatlari, o’simlik po’stining dorivorligi, ya’ni xalq tabobatidagi o’rni tahlil qilingan. Asosiy e’tibor o’simlik po’stining kimyoviy tarkibini o’rganishga, ayniqsa, odam organizmida uchraydigan ayrim kasalliklarni davolashdagi ahamiyatiga qaratilgan. Shuningdek, o’simlik po’stining element tarkibi CX spektrometrik usulda aniqlangan va tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются ботанические и биологические свойства растения Allium cepa (репчатый лук), произрастающего в Ферганской долине, лечебные свойства коры растения, то есть его роль в народной медицине. Основное внимание было уделено на изучение химического состава коры растения, особенно его значение в лечении некоторых заболеваний, возникающих в организме человека. Также, был определен и проанализирован элементный состав коры растения Allium cepa методом CX спектрометрии.*

Annotation. *This article analyzes the botanical and biological properties of the Allium cepa (onion) plant growing in the Fergana Valley, the medicinal properties of the plant bark, that is, its role in folk medicine. The main attention was paid to studying the chemical composition of the plant bark, especially its importance in the treatment of certain diseases that occur in the human body. Also, the elemental composition of the bark of the Allium cepa plant was determined and analyzed using CX spectrometry.*

Kalit so‘zlar: *Allium cepa, makroelement, mikroelement, antiseptik, ekstrakt.*
Ключевые слова: *Allium cepa, макроэлемент, микроэлемент, антисептик, экстракт.*
Key words: *Allium cepa, macroelement, microelement, antiseptic, extract.*

Kirish. Qadimdan odamlar kasalliklarni davolashda tabiat ne’matlaridan foydalanib kelganlar. O’simlik, hayvon mahsulotlari va minerallardan tayyorlangan shifobaxsh vositalarni qo’llash bilan xalq tabobatining yangi uslublari va tarmoqlari vujudga kelmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “O’zbekiston respublikasida xalq tabobatini

rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 4668-sonli qarorida xalq tabobati aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning qo'shimcha usuli sifatida tan olinishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, dunyodagi mavjud tibbiyot fanlari tizimidagi ixtisosliklar qatoriga "Xalq tabobati" ixtisosligi kiritildi [1,2].

Tabiiy vositalardan, shuningdek, o'simliklardan xalq tabobatida foydalanish uchun dastavval ularning kimyoviy tarkibini, jumladan, makro- va mikroelementlarni o'rganish kerak.

Tadqiqot maqsadi. Bosh piyoz (Allium cepa) po'stining kimyoviy tarkibini o'rganish asosida xalq tabobatida ayrim kasalliklarni davolash maqsadida tabiiy vosita yaratish uchun uning elementar tarkibini aniqlash.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda dorixonalarda sotilayotgan kimyoviy moddalar o'rniga xalq tabobati usullari va vositalaridan foydalanishning afzalliklarini barcha tushunib yetmoqda. Shu nuqtai nazardan bosh piyoz po'stlarining kimyoviy tarkibini, shifobaxshligini o'rganish va uning asosida tabiiy vositalar yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar taxlili. Dorivor o'simliklarning poyasi, bargi, mevasi, po'sti, gullari, ildizi va xatto chiqindilari xalq tabobatida turli xil kasalliklarga shifo bo'lishi mumkin. Allium cepa ko'p yillik o'simlik (amaliyotda - ikki yillik), mevasining diametri 15 sm gacha, tashqi qavati quruq, sariq, och binafsha yoki oq, ichki qismi oq, yashil yoki binafsha rangda bo'lib, qisqa poyada joylashgan. Meva oltitagacha urug'ni o'z ichiga olgan kapsula ko'rinishida. Urug'lari qora, uchburchak, ajin, mayda. Iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevalari avgust oyida pishib etiladi [3].

Piyoz po'stining farmakologik ta'sirini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: immunitetni stimullovchi, shamollashga qarshi, antiseptik, antioksidantlik, tonusni ko'taruvchi, allergiyaga qarshi, aterosklerozga qarshi, kardiotonik, qon aylanishini stimullovchi, toksinlardan tozalovchi, xolestiringa qarshi, gipotenzivlik ta'siri, regenerativlik, qarishni sekinlashtirish, onkoprotektorlik va kosmetologik. Xalq tabobatida piyoz po'stidan ichish uchun damlama, qaynatma, spirtli nastoyka, ekstraktlar, hamda moy va mazlar tayyorlanadi [3,4,8,9].

Tirik organizmlarda, jumladan, o'simliklarda davriy sistemaga kiritilgan elementlarning 90 dan ortig'i uchrab, ular organizmda turli muhim vazifalarni bajaradi. Elementlar organizmdagi miqdoriga ko'ra makroelementlar (0,01% dan ko'p, kislorod, uglerod, vodorod, azot, oltingugurt, fosfor, kalsiy, natriy, kaliy, magniy, temir, xlor), mikroelementlar (10^{-3}-10^{-5} %, marganets, kobalt, mis, molibden, rux, temir, yod) va ultramikroelementlar (10^{-5}% dan kam bo'lgan oltin, selen, vismut, simob) ga ajratiladi. Shuningdek, odam organizmda juda kam miqdorda zaxarli elementlar ham bo'ladi [5].

Piyoz po'sti tarkibida ko'p miqdorda uchraydigan makroelemenlardan kalsiy odam organizmi umumiy massasining 2% tashkil etadi. Umumiy miqdoridan (~ 1400 g 70 kg odam tana vazniga nisbatan) 98-99% suyak va tish to'qimalari, qon tarkibida 9-11mg% bo'ladi. U qon ivishida, mushaklar qisqarishi va boshqalarda ishtirok etadi. Uning so'rilishi D vitaminiga bog'liq [6].

Natriy turli biomolekulalar tarkibiga kirib, kaliy, kalsiy va magniy ionlari bilan birgalikda nerv impulslarini hosil qilish va o'tkazishda, osmotik bosimni saqlab turishda katta ahamiyat kasb etadi. Uning xlorli tuzi (NaCl) oshqozon shirasi tarkibidagi xlorid kislota (HCl) sintezlanishida asosiy komponent vazifasini bajaradi. Natriy odam organizmidagi bufer (karbonatli va fosfatli) sistemalari tarkibiga kiruvchi ion bo'lib, kislota-asos muvozanatining boshqaruvida bevosita ishtirok etadi [5,6].

Kaliy makroelementi odam organizmidagi barcha to'qimalarda uchraydi. U natriy singari, osmotik bosimni saqlash va nerv impulslarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega. U mushaklar qisqarishini yaxshilaydi. Uning miqdoriy ortishi yurakning qo'zg'aluvchanligi hamda o'tkazuvchanligining pasayishi bilan davom etadi va shu orqali yurakning bir maromida (teskari ta'sirga ega bo'lgan Na+ bilan birgalikda) ishlashini ta'minlab beradi. Temir immunobiologik jarayonlarda katta axamiyatga ega. Organizmdagi temir miqdorining kamayishi alimentar anemiya (kamqonlik) kelib chiqishi va immunitetning kamayib ketishiga sabab bo'ladi [6].

Qadim zamonlardan beri xalq tabobatida piyoz sarimsoq bilan birga dori sifatida ishlatilgan. Kavkaz xalqlari Allium ursinum "yovvoyi piyoz" o'simligining madaniy turlari paydo bo'lganidan ancha oldin qo'llashni bilganlar. Shimoliy Kavkazda yovvoyi sarimsoq yig'ishning yillik hajmi 200 tonnaga yaqin, Sibirda - 400 tonna, Uzoq Sharqda - 700 tonnagacha. O'rmon xo'jaligi korxonalari tomonidan yillik yovvoyi sarimsoq yig'ish ulushi 5-40 tonnani tashkil etadi. O‘simlikni xom holda gipertoniya kasalligida, aterosklerozni davolashda, vitamin C yetishmasligida antikorbutik, antigelmintik vosita sifatida iste’mol qilish tavsiya etiladi [7].

Adabiyotlarda piyoz po’sitining shifobaxshligi haqida ko’plab ma’lumotlar uchratish mumkin [3,8,9], jumladan, piyoz po‘stlog‘i, qarag‘ay ignalari va qizilmiya ildizi aralashmasi 2 litr suvga quyiladi va past olovda 15-20 daqiqa qaynatiladi, termosga quyiladi va 10-12 soat davomida qoldiriladi. Keyin yana suv hammomida qaynab turgan holga keltiriladi. Sovutilgan qaynatma choy o'rniga kuniga 2 litrgacha ichiladi. Sovuq paytida odamlar immunitetni oshirish uchun shunday choylar orqali davolanishgan [9].

Tajriba o’tkazilgan vaqt, joy va tadqiqot metodikasi: Allium cepa po’stining tarkibidagi umumiy kul, mikro-va makroelementlar miqdori “O’zbek geolog qidiruv” AJ markaziy laboratoriyasida ISP agilent 7500 CX spektrometrida aniqlandi (25.10.2024).

Olingan natijalar. Allium cepa po’sti tarkibidagi makro- va mikroelementlar aniqlandi. Tajriba natijalariga ko’ra yangi quritilgan piyoz po’sti tarkibidagi elementlarga o’tkazilgan miqdor analizi natijasida quyidagilar aniqlandi (1-jadval).

1-**jadval. Allium cepa (bosh piyoz) po’stining elementar tarkibi**

TT /r	Element belgisi	Miqdori, мg/100г	T/r	Element belgisi	Miqdori, мg/100г	T/r	Element belgisi	Miqdori, мg/100г
1.	Li	0,019	13	Cr	0,012	25	Y	0,0045
2	Be	0,00021	14	Mn	0,42	26	Zr	0,0033
3	B	0,27	15	**Fe**	20	27	Nb	0,00015
4	**Na**	62	16	Co	0,0059	28	Mo	0,016
5	**Mg**	83	17	Ni	0,02	29	Ag	0,013
6	Al	10	18	Cu	0,083	30	Cd	0,00014
7	P	15	19	Zn	0,096	31	In	0,00005
8	**K**	48	20	Ga	0,0032	32	Sn	0,0011
9	**Ca**	420	21	As	0,0040	33	Sb	0,0027
10	Sc	0,0035	22	Se	0,005	34	Te	0,0030
11	Ti	0,1	23	Rb	0,037	35	Cs	0,0016
12	V	0,011	24	Sr	6,5	36	Ba	0,31

O’tkazilgan masspetrometrik taxlil natijalarini ifodalovchi jadval va diagrammalardan ko’rinib turibdiki, piyoz po’sti tarkibida 36 xil element, jumladan, makroelementlardan eng ko’p miqdorda kaltsiy (420 mg), kaliy (48 mg) magniy (83 mg), fosfor (15 mg), natriy (62 mg), temir (20 mg) va boshqa elementlar 0,00014-0,4 mg miqdor oralig’ida bo’lishi aniqlandi. Xom ashyo tarkibida makroelementlar miqdori ko’pligini, uning farmakologik xususiyatlarini inobatga olib, piyoz po’sti va boshqa o’simliklardan foydalanib, xalq tabobatida foydalanish mumkinligi ko’rinib turibdi.

Xom ashyoni dorivor mahsulot sifatida taklif etishda albatta, uning tarkibidagi zaxarli elementlar bor-yo’qligi inobatga olinadi. Shu nuqtai nazardan taxlil natijalari piyoz po’sti tarkibida zaxarli elementlar (mishyak, simob, qalay va surma) mavjud emasligini ko’rsatdi (1-jadval).

Allium cepa po‘sti tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar tahlil qilinganda bir nechta V guruxiga mansub vitaminlar, jumladan, eng ko’p miqdorda, ya’ni 10 mg ga yaqin B_9; 1-1,5 mg miqdorda B_1, B_3, B_6, B_{12} va PP mavjud ekanligi aniqlandi. Binobarin, piyoz po’sti tarkibida organizm

hayot faoliyatida immunitetni oshiradigan, o‘sish va rivojlanishda ahamiyati katta bo’lgan B_9 vitamini ko’p miqdorda ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi[10,11].

Piyoz po’sti tarkibida kaltsiy elementining ko’pligi uni D vitaminiga boy maxsulot bilan kompozitsiya tayyorlashda qo’llash zarurligini ko’rsatadi, chunki, kaltsiyning organizmga so’rilishida D vitamining roli katta.

Xulosa:

- Spektrometrik usulda o’tkazilgan taxlil natijalari Allium cepa po’sti tarkibida 36 xil element mavjudligini ko’rsatdi;

- makroelementlardan kaltsiy (420 mg), kaliy (48 mg), magniy (83 mg) natriy (62 mg), temir (20 mg) ko‘p bo’lishi uning shifobaxshligini, immunitetni ko’taradigan va davolash maqsadida ishlatiladigan preparat tayyorlash uchun manba sifatida tavsiya etiladi;

- Allium cepa po’sti tarkibida zaxarli elementlar mavjud emasligi hamda kaltsiy elementining ko’pligi uni D vitaminiga boy maxsulot bilan oziq-ovqat qo’shilmasini tayyorlashda xomashyo sifatida tavsiya etiladi.

Введение. С древних времен люди использовали дары природы для лечения болезней человека. Появляются новые методы и направления народной медицины с использованием лекарственных средств, изготовленных из продуктов растительного, животного происхождения и минералов. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2020 года «О дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» УП-4668 народная медицина признана дополнительным методом оказания медицинской помощи населению. Также, специальность «Народная медицина» вошла в число специальностей системы медицинских наук в республике и всего мира [1,2].

Чтобы использовать природные средства, а также, растения в народной медицине, необходимо прежде всего изучить их химический состав, в том числе макро- и микроэлементы.

Цель исследования. На основе изучения химического состава кожуры лука (Allium cepa) определить его элементный состав с целью создания природного средства для лечения некоторых заболеваний в народной медицине.

Актуальность темы. Сегодня многие уже понимают преимущества использования методов и средств народной медицины вместо химикатов, продающихся в аптеках. С этой точки зрения изучение химического состава и лечебных свойств луковой шелухи и создание натуральных средств на их основе является одной из актуальных задач современности.

Литературный обзор. Стебли, листья, плоды, кора, цветы, корни и даже отходы лекарственных растений в народной медицине можно использовать для лечения различных заболеваний. Allium cepa - многолетнее растение (на практике - двулетнее), диаметр плодов до 15 см, наружный слой сухой, желтый, светло-фиолетовый или белый, внутренняя часть - белая, зеленая или фиолетовая, расположен на коротком стебле. Плод имеет форму коробочки, содержащей до шести семян. Семена черные, треугольные, морщинистые, мелкие. Цветет в июне-июле. Плоды созреваются в августе [3,9].

Фармакологические действия луковой шелухи можно разделить на следующие группы: иммуностимулирующее, противопростудное, антисептическое, антиоксидантное, тонизирующее, противоаллергическое, противоатеросклерозное, кардиотоническое, стимулятор кровообращения, детоксикационное, антихолестериновое, антигипертензивное, секреторные, регенерирующие, онкопротекторные и косметологические. В народной медицине из луковой шелухи готовят настойки, отвары, спиртовые настойки, экстракты, а также масло и пряности [3,4,8,9].

В живом организме, в том числе и в органах растений встречаются более химических 90 элементов периодической системы, которые выполнят различные важные функции. По количеству в организме всех элементов подразделяют на следующие группы: макроэлементы (более 0,01%, кислород, углерод, водород, азот, сера, фосфор, кальций, натрий, калий, магний,

железо, хлор); микроэлементы (10^{-3} -10^{-5} %, марганец, кобальт, медь, молибден, цинк, железо, йод) и ультрамикроэлементы (менее 10^{-5}% золото, селен, висмут, ртуть). Также, в организме человека очень малых количествах встречаются и токсичные элементы [5,6].

Среди макроэлементов, содержащихся в луковой шелухе составляют большое количество, такие как кальций, калий, натрий, железо и др.

Кальций составляет 2% от общей массы тела человека (~1400 г на 70 кг массы тела человека), в том числе, 98-99% костная и зубная ткань, 9-11 мг% в крови. Он участвует в свертывании крови, сокращении мышц и др. Его всасывание зависит от витамина D [6].

Натрий входит в состав различных биомолекул, вместе с ионами калия, кальция и магния играет значительную роль в генерации и передаче нервных импульсов и поддержании осмотического давления. Его хлоридная соль (NaCl) является основным компонентом при синтезе соляной кислоты (HCl), содержащейся в желудочном соке. Ионы натрия, которые входят в состав буферных (карбонатной и фосфатной) систем организма и непосредственно участвующие в управлении кислотно-щелочного баланса [5,6].

Калий, один из макроэлементов, содержится во всех тканях человеческого организма. Как и натрий, он важен для поддержания осмотического давления и генерации нервных импульсов. Улучшает сокращение мышц. Его количественное увеличение сопровождается снижением сердечной возбудимости и проводимости, обеспечивая тем самым сердечный ритм (вместе с Na+, оказывает противоположный эффект).

Железо имеет большое значение в иммунобиологических процессах. Уменьшение количества железа в организме вызывает алиментарную анемию (малокровие) и снижение иммунитета [6].

С древних времен лук использовался как лекарственное средство наряду с чесноком в народной медицине. Народы Кавказа умели использовать Allium ursinum «дикий лук» до появления культурных видов растения. Ежегодный объем сбора черемши на Северном Кавказе составляет около 200 тонн, в Сибири - 400 тонн, на Дальнем Востоке - до 700 тонн. Доля ежегодного сбора составляет от 5 до 40 тонн. Рекомендуется употреблять в сыром виде при гипертонической болезни, при лечении атеросклероза, как антибактериальное, противогельминтное средство при дефиците витамина С [7].

В литературе можно найти много информации о целебных свойствах луковой шелухи [3,8,9], в том числе смеси луковой шелухи, хвои и корня солодки, залитой 2 л воды и кипятимой на слабом огне 15-20 минут, переливают в термос и оставляют на 10-12 часов. Затем его еще раз кипятят на водяной бане. Остывший отвар пьют до 2 литров в день вместо чая. Во время простуды такими чаями лечили людей для повышения иммунитета [9].

Время, место и методика исследования: количество общей золы, микро- и макроэлементов в коре Allium сера определялось в центральной лаборатории АО «Узбекская геологическая служба» на спектрометре ISP agilent 7500 CX (25 октября 2023 года).

Полученные результаты. Результаты эксперимента количественного анализа элементов в свежевысушенной луковой шелухе установлено следующее (табл. 1).

Таблица 1. **Элементный состав кожуры лука Allium сера**

№	Элемент	Коли-чество, мг/100 г	№	Элемент	Коли-чество, мг/100 г	№	Элемент	Коли-чество, мг/100 г
1.	Li	0,019	13	Cr	0,012	25	Y	0,0045
2	Be	0,00021	14	Mn	0,42	26	Zr	0,0033
3	B	0,27	15	**Fe**	20	27	Nb	0,00015
4	**Na**	62	16	Co	0,0059	28	Mo	0,016

5	**Mg**	83	17	Ni	0,02	29	Ag	0,013
6	Al	10	18	Cu	0,083	30	Cd	0,00014
7	P	15	19	Zn	0,096	31	In	0,00005
8	**K**	48	20	Ga	0,0032	32	Sn	0,0011
9	**Ca**	420	21	As	0,0040	33	Sb	0,0027
10	Sc	0,0035	22	Se	0,005	34	Te	0,0030
11	Ti	0,1	23	Rb	0,037	35	Cs	0,0016
12	V	0,011	24	Sr	6,5	36	Ba	0,31

Как видно, из данных таблицы и диаграммы результаты масс- спектрометрического анализа, в кожуре лука содержится 36 различных элементов, в том числе наибольших количествах макроэлементы: кальций (420мг), магний (83мг), калий (48мг), натрий (62 мг), железо (20 мг), фосфор (15мг) и другие элементы находились в пределах 0,00014-0,4 мг. Учитывая большое количество макроэлементов в сырье, можно судит его фармакологические свойства, а также возможность использования луковой шелухи и других растений в народной медицине.

Предлагая сырье в качестве лекарственного средства, необходимо учитывать, содержит ли оно токсичные элементы или нет. В связи с этим результаты анализа показали, что кожица лука не содержит токсичных элементов (мышьяка, ртути, олова и сурьмы) (табл. 1).

Хроматографические анализы коры Allium сера показали наличии и количество витаминов, принадлежащих к группу В, в том числе наибольшее количество около 10 мг B_9, B_1 , B_3, B_6, B_{12} , в количестве 1,5 мг обнаружено присутствие РР. В луковой шелухе содержится B_9, повышающий иммунитет в жизнедеятельности организма, имеющий большое значение для роста и развития [10,11].

Большое количество элемента кальция в кожуре лука указывает на необходимость использования его при приготовлении композиции с продуктом, богатым витамином Д, поскольку роль витамина Д в усвоении кальция в организме велика.

Выводы:

- Результаты спектрометрического анализа показали наличие в кожуре Allium сера 36 различных химических элементов;

- большое содержание кальция (420 мг), калия (48 мг), магния (83 мг), натрия (62 мг), железа (20 мг) в составе макронутриентов повышает его целебные свойства, повышает иммунитет и используется для приготовления препарат для лечебных целей, рекомендованный в качестве ресурса;

- Кожура лука сера не содержит токсичных элементов, а обилие элемента кальция позволяет рекомендовать ее в качестве сырья для приготовления пищевой добавки с продуктом, богатым витамином D.

